



"Qishloq infratuzilmasini rivojlantirish" loyihasi tomonidan Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi ishlab chiqilgan.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (ShKChM) – bu loyiha amalga oshirish davomida salbiy ta'sirga uchragan jamoatchilik va/yoki alohida shaxslarning loyihaga taalluqli barcha shikoyatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va ularga javob berish bo'yicha chora-tadbirlar to'plamidir. Ushbu salbiy oqibatlarga majburiy ko'chirish, qurilish bilan bog'liq muammolar, infratuzilmaga kirish yo'llari yoki yo'laklarini cheklash, ekologik va ijtimoiy ta'sirlar, mehnat qonunchiligining buzilishi va boshqa ta'sirlarni kiritish mumkin.

ShKChMning maqsadi loyiha manfaatdorlarining hisobdorligini oshirish va loyiha ishtirokchilariga ijtimoiy qayta aloqa uchun kanallarni taqdim etishdir. ShKChM loyihaning xavfsizlik xizmati muammolari, xodimlarning g'ayriqonuniy harakatlari va pul mablag'larini suiste'mol qilish, lavozimni suiste'mol qilish va boshqa muammolar haqida ma'lumot berish uchun kanallar yaratadi. Shaffoflik va hisobdorlikni oshirib, ShKChM loyiha manfaatdorlariga va keng jamoatchilikka tasodifiy zararning xatarini kamaytiradi va loyihaning samaradorligini oshiradi.

ShKChMning qamrovi. ShKChM Qishloq Infratuzilmasini Rivojlantirish Loyihasida qatnashish uchun tanlangan barcha qishloqlarni qamrab oladi.

Tamoyillar. Loyihaning manfaatdor tomonlari - bu loyihadan bevosita yoki bilvosita ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'radiang shaxslardir. Boshqalar bilan bir qatorda, loyiha manfaatdorlari loyiha bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

- Axborot/Ma'lumot olish
- Tashqi tashkilotlar tomonidan noo'rin aralashuvlarga munosabat biridirish
- Firibgarlik va korruptsiyadan holi loyiha.

So'rovchlarni yuborish uchun kanallar

1. Ishonch telefoni: + 99871 232-63-32,
2. QIRL rasmiy veb-sayti: www.ridp.uz
3. Facebook-<http://www.facebook.com/QIRL2020>
4. Loyihaning rasmiy telegram akkaunti, murojaatlar profili - @RIDP_GRM
5. Loyerda davomida pudratchilar, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan og'zaki yoki yozma murojaatlar;
6. LAOG elektron pochta manzili: ridp@mineconomy.uz
7. LAOG ofis telefoni: +998712326203 (qabulxona)
8. LAOG manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, I.A.Karimov prospekti, 45 A.
9. Loyerda uchun tanlangan har bir mahallalarda o'rnatilgan murojaat va shikoyatlar qutilari (ShKChM).
10. Shu bilan birga, Loyerda uchun tanlangan MFYlarga yozma yoki og'zaki murojaatlar qilishlari mumkin. Viloyat va tuman xokimliklari darajasida, bundan tashqari, Loyihaning qishloq fasilitatorlari/Ko'makdosh hamkorlar yordamida hududlardagi murojaatlar qutilari orqali ham shikoyat, takliflarini bildirishlari mumkin. Loyerda amalga oshiriladigan hududlarda ShKChM bilan shug'ullanadiga alohida mutaxassislar mavjuddir.
11. Qishloq, tuman va viloyat darajasidagi saqlanadigan shikoyatlar qutilariga yozma murojaat qoldirish